

INNOVATSION TA'LIM FAOLIYATI JARAYONIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH

G’afforova Hurriyat Yangiboyevna

*Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi, Termiz sh., O’zbekiston
e-mail:hurriyat1984@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy, ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar yoritilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining ijtimoiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv texnologiyalarini tizimlashtirish hamda pedagoglarning o’z kasbiga nisbatan internal va eksternal motivlarini barqarorlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, pedagog, kasbiy, ijtimoiy-pedagogik kompetensiya.

Аннотация. В статье описаны инновационные подходы к развитию профессиональных, социально-педагогических компетенций воспитателей дошкольного образования. Даны рекомендации по систематизации инновационно-рефлексивных технологий развития социально-педагогической деятельности педагогов дошкольного образования и расширению возможностей педагогов по стабилизации внутренних и внешних мотивов по отношению к своей профессии.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, педагог, профессиональная, социально-педагогическая компетентность.

Annotation. The article describes innovative approaches to the development of professional, socio-pedagogical competencies of preschool teachers. Recommendations are given on the systematization of innovative and reflexive technologies for the development of social and pedagogical activities of preschool teachers and the expansion of teachers' opportunities to stabilize internal and external motives in relation to their profession.

Key words: organization of preschool education, teacher, professional, socio-pedagogical competence.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim mazmuni va kadrlar tayyorlash jarayonlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish va tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishi sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini to‘liq anglanishiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas’uliyatli munosabatni qaror toptirishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlarini, ya’ni bu jarayonni an’anaviy uslublaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos keladigan, demokratik prinsiplarga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etmoqda. Bunda maktabgacha ta’lim jarayoni sub’ektlari faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirish asosida ta’lim sifatini takomillashtirishning mexanizmlarini aniqlash, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini ham qo‘ymoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lgan. Bir qator adabiyotlarda kasbiy kompetentlikka oid qarashlar va ta’riflar berilgan. Jumladan, N.V.Tarasova kompetensiya tushunchasini muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta’minalash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiyligini qobiliyat sifatida talqin etadi .

V.I.Andreyevning ta’kidlashicha, kompetensiya – bu ma’lum o‘quv, kasbiy va boshqa kompleks masalalarni yechishda namoyon bo‘luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko‘rsatkich bo‘lib, shaxsning (ijobiy motivatsiya, bilim, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o‘z ichiga oluvchi) tayyorgarlik darajasidir.

M.A.Umaraliyevning fikricha, kompetensiya – bu o‘zining kasbiy mahoratini mukammal rivojlantirgan, dars jarayonini nafaqat loyihalashtiradigan, balki uni boshqara oladigan, ta’lim islohotlarini, zamon talablarini, innovatsiyalarni tez ilg‘ab, uni dars jarayonida samarali qo‘llay olishdir.

Kompetentlik – insonning mayjud bilim va hayotiy tajribalariga tayangan holda ma’lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyatidir degan xulosaga kelish mumkin. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, kompetentlik tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar, ilg‘or qarashlar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq, maktabgacha ta’lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Yuqoridaagi fikrlarga tayangan holda biz tarbiyachining kasbiy kompetensiyasiga - bu o‘zining kasbiy mahoratini rivojlantirishga intiladigan, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etadigan va davlat dasturi asosida o‘zining variativ dasturlarini yarata oladigan, tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlaydigan, ta’lim tizimidagi islohotlarga mas’uliyat bilan yondashib o‘rganadigan va uni amaliyotda qo‘llay oladigan,

mustaqil fikrini bayon eta oladigan shaxs. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish murakkab jarayon bo‘lib, unda tarbiyachilarning ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g‘oyaviy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy yetukligi, mazkur sohaga to‘la-to‘kis tayyorgarligini belgilashi tushuniladi. Shunga qaramasdan bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlashda quyidagi kamchiliklar mavjud ekanligi aniqlandi: tarbiyachilarining kasbiy, ilmiy-metodik tayyorgarligi maktabgacha ta’lim mazmuni va uning ilmiy-metodik ta’minotidan orqada ekanligi; mutaxassislarni tayyorlashda ularning ijodi va ijtimoiy faolligi, g‘oyaviy-siyosiy yetukligi, kasbiy qiziqishi, kommunikativligi va kognitivligini rivojlantirishga nisbatan zamonaviy yondashilmayotganligi; maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlash tizimining ilmiy-nazariy hamda metodik jihatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligi, bu jarayonda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni egallahsga innovatsion yondashilmayotganligi kabilar.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiya jarayoni maqsadlarini aniqlash muayyan ichki va tashqi shart-sharoitlarni o‘rganish, kadrlarning salohiyatini oshirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish bilan belgilanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur jarayonda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilimlar va asosiy tushunchalar haqida yetarlicha ma’lumot berilmayapti.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiypedagogik tayyorgarligi muayyan tarkibiy qismlarga ega bo‘lib, ular birbirini to‘ldiradi va maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayonida muntazam rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining oliy ta’lim muassasalarida egallagan bilim, ko‘nikma, malaka hamda kasbiy kompetensiyalari ularning amaliy pedagogik faoliyatlarida takomillashadi. Shuningdek, MTT tarbiyachilari malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ishtiroy etish orqali o‘sibkelayotgan yosh avlodning ma’naviyaxloqiy, estetik va iqtisodiy rivojlanishiga oid umumiyligida qoidalar haqidagi yangi ma’lumotlarni egallashi, tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosini tushunish, ularning potensial imkoniyatlarini bilib olishning samarali usul va vositalaridan foydalanishga yo‘naltirilgan kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Andreyev.V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya. Innovatsionniy kurs. Kniga 1.-Kazan: Izd.-vo Kazanskogo universitetata, 1996.-570 s.
- 2 Umaraliyeva M.A. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoreferati. T., 2020. 10-b.